UDK.74.4

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR MUHITIDA KATTA YOSHLILAR TA'LIMINING USTUVOR JIHATLARI

Daminova Yu

Qarshi DU, Texnologik ta`lim kafedrasi mudiri, dotsent, PhD (Pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori)

https://orcid.org/0009-0007-1981-4169

daminova.yulduz1980@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada katta yoshlilar ta'limi, andragogika va adragogik ta'lim tushunchalari, andragogik ta'limning ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik hususiyatlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Aholini ish bilan band bo'lmagan qatlami, katta yoshlilar ta'limi, andragogika, andragogik ta'lim, adragog, kompetentlik, kasbiy rivojlanish.

Аннотация: В статье рассматриваются понятия образование взрослых, андрагогика и андрагогическое образование, а также социально – психологические и педагогические аспекты андрагогического образования.

Ключевые слова: образование взрослых, андрагогика, андрагогическое образование, компетентность, андрагог, профессиональное развитие.

Annotation: The article is devoted to andragogics, education of adragogics. As well there is considering the issues of social – psychology and pedagogical aspects of andragogics.

Keywords: andragogy, providing andragogical education, competence, creativity, adult educators, professional development.

Kirish (Introduction)

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida iqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy yo‘llaridan biri — aholining mehnatga layoqatli qatlamini samarali ish bilan ta'minlashdan iborat. Ayniqsa, ishsizlar, ijtimoiy himoyaga muhtojlar, yoshlar, ayollar kabi aholining band bo‘lmagan qismini kasb-hunarga o‘qitish ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlarida ham ishsizlikni kamaytirish, aholining turmush darajasini oshirish maqsadida kasb-hunar markazlarini kengaytirish, qisqa muddatli kurslar tashkil etish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar belgilangan. Mazkur maqolada aholining ish bilan band bo‘lmagan qismini kasb-hunarga o‘qitishning amaliy jihatlari, mavjud muammolar, o‘quv dasturlari samaradorligi va ilg‘or xorijiy tajribalar tahlil qilinadi. O'zbekiston faqat ta'limni rivojlantirib hamda eng muhimi bunga aholining barcha qatlamlarini jalb qilish orqali yuksak marralarga erishish

ISSN 3030-3907

mumkinligini inobatga olib, 2020-yil 23 – sentabrda “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning yangi taxriri Prezident tomonidan imzolandi va kuchga kirdi. Mazkur Qonunning 2 – bob (Ta’lim tizimi, turlari va shakllari) 19 – moddasi “Katta yoshlilarni o’qitish va ularga ta’lim berish” deb nomlangan bo’lib, unga ko’ra katta yoshlilarni o’qitish va ta’lim berish butun umr davomida o’qitishning markaziy tarkibiy qismi ekanligi ta’kidlandi. Ta’lim berish va o’qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshlilarning ishtirok etishini ta’minlashga qaratilgan barcha shakllarni o’z ichiga oladi, shuningdek rasmiy, norasmiy va informal o’qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi. (1)

Katta yoshlilar kimlar? Ma’lumki, raqobatga asoslangan bozor munosabatlari aholining ish bilan band bo’lmagan qatlamini vujudga keltirib chiqaradi. Kuzatish natijalari shuni ko’rsatadiki, aholining ish bilan band bo’lmagan qatlamining aksariyatini katta yoshli kishilar tashkil etadi. Katta yoshli deganda yoshi 30 dan oshganlar, nafaqadagilar nazarda tutiladi. Ammo hozirgi kunda bu qatlamga o’rta ma’lumotga ega bo’lgan va mustaqil pul topishni boshlagan har qanday inson katta yoshli hisoblanadi, ya’ni bu toifaga ishni endigina boshlamoqchi bo’lgan yoshlar ham, ma’lum bir mutaxasislikka ega o’rta yoshlilar ham, yangi kasb hunarni o’rganishni (garchi oliy ma’lumotli bo’lsa-da) yoki o’z kasbini o’zgartirish (masalan: kar’yera uchun)ni xoxlovchilar ham, shuningdek aholining zaif qatlamlari, xususan ijtimoiy himoyaga muhtojlar, mehnat muxojrlari, mahkumlar, nogironlar, qariyalar, fuqaroligi bo’lmagan shaxslar va boshqalar kirishi mumkin.

Katta yoshlilarni o’qitish boshqalardan farq qiladi. Shu soha mutaxasislarining fikricha inson psixologiyasi va falsafiy qarashlar hamda kattalarni o’qitish bo’yicha o’sib borayotgan ilmiy izlanishlar va nazariyalarga asoslanib katta yoshlilarni o’qitishda quyidagi omillarni hisobga olish lozim:

Psixofizioligik omil. Ba’zi yoshi katta odamlarda yangi bilimlarni o’zlashtira olishi borasida shubha bo’ladi. Bu shubhalar yosh ulg’ayishi bilan insonda aqliy salohiyat sekinlashishi, xotiraning pasayishi haqidagi qarashlar bilan bog’liq. Lekin olimlar tomonidan hamma yoshda ham o’qish, o’rganish mumkinligi isbotlangan.

Ijtimoiy – psixologik omil. Katta yoshlilarning ta’lim jarayonidan kutayotgan natija va maqsadining aniq bo’lishi, ularda o’qish o’rganishga bo’lgan motivatsiyaning kuchliligini ko’rsatadi, ammo ba’zilar qaytadan “o’quvchilik” maqomiga tushish layoqatsizdek ko’rinib qolishdan qo’rqishadi. Ular bu jarayonlarga har doim ham ruhiy jihatdan tayyor bo’lmaydilar.

Ijtimoiy to’siq omili. Katta yoshli odam ta’lim jarayonida ishtirok etar ekan, u ta’limning sifatli bo’lishiga nafaqat jiddiy e’tibor qaratadi balki, o’zi uchun

ISSN 3030-3907

qiziqarli yoki kerak bo'lmagan bilimlarni ochiqlik bilan rad etadi, o'z munosabati yoki noroziligini ochiq bildiradi, chunki o'rganilayotgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishdan uning o'zi manfaatdorligini yaxshi tushinadi. Bu esa ta'lim sifatiga yangi talablarni qo'yadi. Shu sababli katta yoshlilar ta'limi bilan shug'illanuvchi – andragog (referent, tashkilotchi yoki trener) ta'lim berish jarayonida katta yoshli o'quvchining o'ziga xosligi, dunyoqarashi, ijtimoiy maqomi, hayotiy tajribaga ega ekanligi va boshqa jihatlariga e'tibor qaratishi zarur.

Psixologik – pedogagik omil. Ba'zida odamlarda umr bo'yi o'qib o'rganishi karakligi haqidagi qarashlarning shakllanmaganligi yoki inson o'zini umr bo'yi o'qib o'rganishga, yangiliklarni qabul qilishiga layoqatli ekanligini to'g'ri baholay olmasligi kuzatiladi. Shuning uchun ham katta yoshlilar ta'limi jarayonida ularning o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon etishlari uchun qulay shart – sharoit yaratilishi lozim. Bunda jarayon erkin, interfaol muloqot maydoni muvoffaqiyatga yo'naltirilgan bo'lishi, o'qitishda amaliy ishbilarmonlik o'yinlari, terninglar, debatlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Yuqorida qayd etilgan omillar katta yoshlilar ta'limiga boshqacha yondoshishni taqazo etadi. Jahon tajribasida katta yoshlilarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti bilan andragogika (adult education) shug'ullanadi. Andragogika fan sifatida shakllanganganga qadar bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. Xususan, XIX - asrning 30-yillaridan boshlab Yevropa va Amerikaning ko'pgina davlatlarida bu davrda ishlab chiqarishning tez o'sishi, jamiyat va ijtimoiy hayotning rivojlanishi negizida kattalarni o'qitishning dastlabki tajribalari to'plana boshladi.

XX - asr boshlarida katta yoshlilarni o'qitish muammosi olimlar tomonidan insonni o'rganuvchi fanlar tizimiga kiritilgan. Birinchi navbatda bu insonning turli yosh davrlaridagi ruhiy rivojlanishi jarayonlari bilan bog'lanadi. Ammo bu vaqtda inson hayotining hamma bosqichida ham ta'lim olish mumkinligi haqidagi qarashlarni asoslash zarurati vujudga keldi.

1950-1960 yillarda bir qancha xorijiy mualliflarning ishlarida kattalarni o'qitishning dedaktik va metodik yondashuv muammolari ko'rib chiqilgan. Jumladan, aksariyat horijiy tadqiqotchilar katta yoshlilarni o'qitishning pedagogik tamoyillar asosida talqin etib, kattalarni o'qitishning o'ziga hos hususiyatlarini " kattalar pedagogikasi " deb ataganlar (2).

Metodologiya (Methods)

Tadqiqot quyidagi usullar asosida amalga oshirildi:

- Tahliliy usul: Hukumat qaror va farmonlari, rasmiy statistik ma'lumotlar, Kambag`allikni qisqartirish va bandlik markazlarining hisobotlari o'rganildi.

ISSN 3030-3907

- So‘rovnoma usuli: Qashqadaryo viloyatida 2024-yil davomida kasb-hunarga o‘qitilgan 100 nafar ishsiz fuqarolar o‘rtasida anonim so‘rovnoma o‘tkazildi.
- Taqqoslash usuli: Xalqaro tajriba, xususan Germaniya, Janubiy Koreya va Turkiya kabi davlatlarda aholini qayta tayyorlash dasturlari bilan O‘zbekistondagi tizim solishtirildi.
- Statistik tahlil: Raqamli ma’lumotlar grafik va jadval shaklida ko‘rib chiqildi.

1960-1970 yillarda bir qancha olimlar2 (M. Ogrizovich, F. Peggeler, G. Xonselmana va boshqalar) ilmiy ishlarida “andragogika” iborasi paydo bo’ldi. Bu mualliflar andragogikaning pedagogikadan farqlarini aniqlashga harakat qildilar. Andragogikaning alohida fan sifatida shakllanishi va tanlanishi 1970-yilga to’g’ri keladi, aynan shu yili kattalar ta’limining amerikalik nazariyachi va amaliyotchi olimi M. SH. Noulzning “Kattalar ta’limining zamonaviy amaliyoti. Andragogika yoki pedagogika” nomli fundamental ishi chop etildi. (3)

1981 - yilda Nobel mukofoti lauriyati amerikalik Robert Sperri tomonidan “Split Brain Theory” (miyaning ikki yarim sharlari nazariyasi) ning yaratilishi katta yoshlilar ta’limi jarayoniga boshqacha yondoshishga turtki bo’ldi. Sperri konsepsiyasiga ko’ra miyaning ikki yarim sharlari turli funksiyalarga ega bo’lib, o’ng va chap yarim sharlar fikrlash holatida turli xil jarayonlarga asoslanadi (4).

Ta’lim olish mobaynida yangi bilimlarni o’rganishda insonlar bir qator bilish jarayonlariga murojaat qilishlari ta’biiy. Bu jarayonlar inson yosh xususiyatlariga qarab takomillashib boradi. Shu sababli ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi bu jarayonlardagi o’z vazifalarini aniq bilib olishlari lozim. Inson voqeylik to’g’risidagi dastlabki ma’lumotlarni sezgilar orqali oladi. Sezgilar insonni voqeylik bilan bog’lovchi vosita hisoblanadi. Bu bog’lanish sezgi turlarini o’rniga qarab, bir necha turga bo’linadi. Ko’rish, eshitish, hid bilish, t’am bilish, teri – tuyish sezgilari aynan bilishni boshlang’ich vositalari hisoblanadi. Sezish hali ma’lumotlarni o’zlashtirish degan so’z emas, bunda sezgilar orqali ma’lumotlar bir necha hususiyatlariga ko’ra yaxlit holga olib kelinadi. Bu esa ma’lumotlarni idrok qilish deyiladi. Idrok qilingan ma’lumotlar xotiradagi oldingi ma’lumotlar bilan sentez, analiz qilinib, guruhlanadi, yaxlitlanadi va tizimga solinadi. Bu Umuman olganda o’zlashtirish murakkab jarayon bo’lib, uning natijasi bilim ta’lim oluvchilarda ma’lumotlarning 5 % o’zlashtirishlari isbotlangan olishda sezgi turlarining ishtirokiga bog’liq bo’ladi. Shu soha mutaxasislari, psixolog olimlarning fikricha verbal (og’zaki) o’qitish usullaridan (ma’ruza, hikoya, tushintirish) foydalanilganda ma’lumotlar inson miyasida qayta ishlanadi, ta’savvur qilinadi va ma’lum bir xulosaga, natijaga keladi (5).

Natijalar (Results)

ISSN 3030-3907

1. O‘zbekistonda mavjud holat:

- 2023-yil yakunlariga ko‘ra, respublika bo‘yicha 1,3 milliondan ortiq fuqaro ishsiz deb qayd etilgan.
- Kambaga`llikni qisqartirish va bandlik vazirligining hisobotiga ko‘ra, o‘tgan yilda 250 ming nafarga yaqin fuqaro qisqa muddatli kasb-hunar kurslariga jalb etilgan.
- Kasblar orasida eng talabgiri: tikuvchilik, sartaroshlik, duradgorlik, elektromontaj, dasturlash.

2. So‘rovnoma natijalari:

- 100 nafar o‘quvchidan 67 nafari o‘qishni tamomlaganidan so‘ng 6 oy ichida ishga joylashgan.
- 22 nafari o‘z kasbi bo‘yicha mustaqil tadbirkorlik faoliyatini boshlagan.
- 11 nafari esa turli sabablarga ko‘ra ish topa olmagan (shu jumladan, joylashuv, malaka yetishmasligi, raqobat).

3. Xalqaro tajriba:

- Germaniya: “Dual ta’lim” tizimi asosida amaliyot va nazariyani uyg‘unlashtirgan o‘quv dasturlari keng tarqalgan.
- Koreya: Maxsus texnik maktablar ishsizlarni 3-6 oyda qayta tayyorlab, ularga kafolatlangan ish o‘rinlarini taklif etadi.
- Turkiya: Davlat-sheriklik asosida xususiy sektor bilan hamkorlikda malaka oshirish markazlari faol.

Munozara (Discussion)

Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, aholining ishsiz qismini kasb-hunarga o‘qitish ularning bandligini ta’minlashda sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq, mavjud tizimda muammolar ham yetarli:

- O‘quv kurslari mazmuni tez o‘zgarayotgan mehnat bozori talablariga moslashtirilmagan.
- Ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlik zaif – amaliyotga asoslangan o‘quv shakllari yetarli emas.
- Ba’zi hududlarda o‘quv markazlari yetarli emas yoki infratuzilmasi past darajada.

Taklif sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Yangi kasb-hunarga o‘rgatish markazlarini tashkil qilishda xususiy sektorni jalb etish;
- O‘qituvchilarning malakasini doimiy oshirish;
- Har bir hududda mehnat bozori monitoringini joriy etish orqali kerakli kasblarni aniqlash va o‘qitishni shunga moslashtirish;

ISSN 3030-3907

• Xalqaro tajribalar asosida “dual” ta’lim tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish.

Xulosa (Conclusion)

Aholining ish bilan band bo‘lmagan qismini kasb-hunarga o‘qitish iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikning ajralmas omilidir. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar muhim bo‘lsa-da, ularni yanada takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, sektorlararo hamkorlikni kengaytirish zarur. Har bir fuqaro uchun zamonaviy, raqobatbardosh kasb egallash imkonini yaratish – barqaror bandlikka erishishning asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ta’lim to’g’risida” Qonun T. O’zb – 2020y – 47 bet
2. Turdiyev E.J. Katta yoshlilarni o’qitish va ularga ta’lim berish texnologiyasi.Monografiya Qarshi “Intelekt”-2023. -122 bet
3. Змеев С. И. Основы анрагогики. Учебное пособие для ВУЗов. – М.: «Флинта: Наука», 1999. -С. 150.
4. Knowles M. S. The Modem Practice of Adult Education. Andragogy versos Pedagogy. -N. Y.. 1970.
5. Колесникова И.А. Основы андрагогики. -М.: «Академия», 2007. -С. 120.
6. Poggeler F. Einführung in die Andragogik. Düsseldorf, 1957. Xonselmana G. Andragogik: Wesen, Moglichkeiten, Grenzen der Erwachsenenbildung. Ziirich, 1951.
7. Katta yoshlilar ta’limi. (Xalq universitetining nemis uyushmasi xalqaro aloqalar instituti) Bonn. Golden Pages 2004.
8. Турдиев Э.Ж. Технологическая подготовка учащихся в процессе дифференцированного профессионального обучения. Монография . -Карши «Насаф» - 2021. -с 104.

ISSN 3030-3907